

RESEARCH ARTICLE

State Political Communication In Public Administration

Muhabbat Saliyeva

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan

Ruxsora Elmuratova

Lecturer, Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 203-210

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article examines the history of the emergence of political communication in Eastern countries, related to social communication. It also explores the prospects for modern political communication and its characteristics, using the experience of Eastern countries as an example. The history of Uzbekistan's relations with China and Korea dates back to ancient times. It examines the trade and cultural ties between countries that connected the ancient Silk Road with Transoxiana, as well as the important political communication processes involved in the distribution of tea, cotton, silk, paper, and other goods throughout the world.

KEY WORDS

East, state, politics, society, communication, prospects, social, spiritual, education.

INTRODUCTION

Buyuk ipak yo'li birgina savdo-sotiq bilan cheklanib qolmay, ayni paytda diplomatik aloqalar, diniy va ma'naviy qadriyatlarni tarqatish yo'li, ya'ni ommaviy kommunikatsiya tarmog'ining markazi sifatida Sharq va G'arb sivilizatsiyasini bog'lovchi yo'l bo'lib, unda Markaziy osiyo xalqlari vositachilik rolini o'ynagan. O'rta asr mafkurasining muhim belgisi – sinkritizm “uch ilm” sintezi – konfusiylilik[1], daosizm[2], buddizm[3]. Qadimda hukmron bo'lgan axloq va siyosiy ta'limot, ya'ni konfutsiylik o'rta asrlardan to bugungi kungacha ham o'z kuchini yo'qotmagan. Soha olimlari davlat, axloqiy, ijtimoiy printsiplar himoyalari va targ'ibotchilari, huquqiy normalar va ta'lim tizimi yaratuvchilari bo'lib hisoblanganlar.

Xitoyda badiiy asarlar ko'proq dunyoviy yo'nalishga ega bo'lgan. Masalan, Konfutsiy ta'limotiga ko'ra “Shi Szin”[4] ga madhiyalar, qo'shiqlar, xulq va urf odatlar masalalari kiritilgan.

Ikki ming yilliklar davrida jahon hamjamiyatining rivojlanishini sarhisob qilar ekanmiz, bugungi murakkab dunyo davlat

boshqaruvida siyosiy kommunikatsiya demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq qator muammolarni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. “Dunyoning zamonaviy siyosiy xaritasida har qachongidan ham ko'proq demokratik rejimlar mavjud bo'lib, bu ko'plab tadqiqotchilarga demokratiyani “qit'alararo siyosiy paradigma” sifatida tan olishda davom etish imkonini beradi”[5].

Bugungi rivojlanishlar davrida xalqaro munosabatlar tizimidagi kuchli o'zgarishlar bilan birga iqtisodiy va siyosiy globallashuv jadal sura'tda rivojlanib borayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda sharq davlatlari siyosatida aloqalar jahon hamjamiyatining e'tiborini va qiziqishini o'ziga tortmoqda. Shunday ekan, Sharq va G'arb siyosiy tizimlarini qiyosiy o'rganishda turli xil yondashuvlar mavjud.

Sharq tipidagi jamiyatlarda boshqa tamoyillar asosiy hisoblanadi, xususan: ixtiyoriy faoliyatdan tiyilish tamoyili, bu

tamoyil qadimda Xitoy siyosiy falsafasining "harakat qilmaslik" tushunchasi, ya'ni Sharq jamiyatlarida inson tabiatning bir qismi sifatida qaraladi, transformatori sifatida emas, balki u yerda inson narsalarning tabiiy yo'nalishiga, buyuk kosmik qonunga amal qiladi, unga ko'ra axloq va marosim birlashtiriladi va marosim yozma va yozilmagan xatti-harakatlar qonunlarini kodlaydi.

Zamonaviy davr talabi dunyoda globallashuv jarayonlarining rivojlanishiga o'zining iqtisodiy salohiyati va eksport imkoniyatlarini jadal sur'atlar bilan oshirib borayotgan Xitoyning ta'siri kuchaymoqda. Uning ta'sir doirasiga nafaqat qo'shni davlatlar, balki dunyoning strategik muhim mintaqalari ham kiradi. Shu bilan birga, Xitoy geosiyosatining o'ziga xos jihati shundaki, u ham diplomatik, ham harbiy strategiyaga asoslanadi, masalan, "Iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi mavjud beqarorlik va oldindan aytib bo'lmaydigan holatlar jahon xo'jalik tizimini boshqarish va yangi jahon iqtisodiy tartibini shakllantirish muammolarini yana bir bor dolzarb qilib qo'ydi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, «Jahon iqtisodiyoti yagona umumiy maqsad va yagona iqtisodiy tartibga ega bo'lishi kerak. Aks holda, u tizim sifatida rivojlana olmaydi. Bu jihat kam o'rganilgan... shuning uchun o'lishi mumkin"[6] deydi.

Xitoy davlat boshqaruvida siyosiy kommunikatsiyaning ahamiyati global boshqaruvning turli usullarini va ular bilan bog'liq xalqaro munosabatlarni, global iqtisodiyotni o'rganadigan tadqiqot ishlar soni ortib borayotganligiga qaratilganligidadir. "2013-yil 20-iyun kuni 20 dan ortiq universitet, ilmiy-tadqiqot institutlari va xalqaro munosabatlarga oid yetakchi jurnallar tahririyatlaridan 60 dan ortiq olimlar ishtirokida global boshqaruv bo'yicha birinchi umumxitoy ilmiy konferentsiyasi bo'lib o'tdi[7], deyiladi xabarda. 2015-yilda Chjan Lixua tahrirligida "Xalqaro tashkilotlarga kirish"[8] va 2016-yilda Chjan Yuyan tahrirligida "Xitoy va globallashuv: Pekin va Moskvadan qarashlar" nashr etildi. P.A.TSigankovning "Zamonaviy dunyoning siyosiy dinamikasi: nazariya va amaliyot", nomli asarida, "savdo, investitsiyalar, sog'liqni saqlash va atrof-muhit kabi siyosat sohalarini davlat tasarrufidan chiqarish global boshqaruv "qarama-qarshi yoki xilma-xil manfaatlarni hisobga olish va birgalikda harakat qilish"ning yagona yo'li"[9] degan fikrni keltiradi. muallifning ta'rifiga ko'ra "G'arb nafaqat pandemiyaga qarshi birlasha olmadi, balki global boshqaruv bo'yicha umumiy strategiya va Xitoyning dunyoda ta'sirini kuchaytirishga yaxlit yondashuvni ishlab chiqa olmadi va bu

uning halokatli va ehtimol tarixiy xatosi"[10] ekanligini tahlil qiladi.

Tadqiqotchilar Yu.Grachkovning "Xitoy hamkorligi strategiyasi: amaliyot va uning kontseptsiyasi" maqolasida "Xitoy davlati dunyoning beshta makromintaqasida 100 dan ortiq mamlakatlardan oshib ketgan global hamkorlik tarmog'ini faol shakllantirayotgan bir paytda[10], boshqa davlatlar uchun o'zining tartibga solish talablarini ilgari surmoqda [11] va AQSh bilan munosabatlarni hal qilishda G'arbning klassik yondashuvlaridan faol foydalanmoqda va butun jahon hamjamiyati [12] Xitoy akademik hamjamiyatida global boshqaruvni inson qadriyatlariga va umumiy manfaatlar nazariyasiga yo'naltirilgan yangi turdagi tamoyillar, mexanizmlar, usullar va faoliyat turlari sifatida tahlil qilinadi.

Turli sub'ektlar insoniyatning jamoat ishlarini boshqarishda teng huquqli muloqot, muzokaralar va hamkorlikdan foydalangan holda, global o'zgarishlar va global muammolarning muammolariga hamkorlikda javob berishadi. Global boshqaruv xalqaro munosabatlarga muhim ta'sir ko'rsatadi: u xalqaro munosabatlarning milliy davlat markazlashtirilgan tizimini va modelini buzadi va insoniyatga yanada murakkab xalqaro muammolarni hal qilish imkonini beradi; odamlarning insoniyatning jamoat ishlarida ishtirok etishiga yordam beradi va xalqaro munosabatlarni demokratlashtirishga hissa qo'shadi; dialog, hamkorlik, muvofiqlashtirish va xalqaro munosabatlardagi nizolarni siyosiy o'zgartirishga, va xalqaro munosabatlarni adolatli va oqilona yo'nalishda rivojlantirishga yordam beradi[13].

2050 yilga borib Xitoy hukumati turmush darajasi rivojlangan mamlakatlarnikiga teng bo'ladigan "farovon" jamiyat qurishni rejalashtirmoqda.

Birinchiidan, Dunyoning beshta makromintaqasida 100 dan ortiq mamlakatlardan oshib ketgan global hamkorlik tarmog'ini faol shakllantirayotgan bir paytda, boshqa davlatlar uchun o'zining tartibga solish talablarini ilgari surmoqda,

Ikkinchiidan, AQSh va butun jahon hamjamiyati bilan munosabatlarni hal qilishda G'arbning klassik yondashuvlaridan faol foydalanmoqda.

Uchinchiidan, Xitoy akademik hamjamiyatida global boshqaruv holizm nazariyasi qadriyatlariga va umumiy manfaatlar nazariyasiga yo'naltirilgan yangi turdagi tamoyillar, mexanizmlar, usullar va faoliyat turlari sifatida tushuniladi.

Xitoy davlat boshqaruvida, jamoat ishlarini boshqarish uchun teng huquqli muloqot, muzokaralar va hamkorlikdan foydalangan holda, global o'zgarishlar va global muammolarni hal qilish, hukumatdan nodavlatga, davlatdan jamiyatga, hududiy siyosatdan nohududiy siyosatga, majburlov boshqaruvidan tengdosh, maslahatchi, ixtiyoriy va tarmoq boshqaruviga o'tish, siyosiy yo'nalishning alohida turini ifodalaydi.

"Jadal o'zgarib borayotgan xalqaro vaziyat sharoitida biz Xitoyni rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tashabbusni qat'iy ko'rsatib, milliy qadr-qimmatimiz va tub manfaatlarimizni himoya qilish uchun kurashyapmiz"[14], — dedi Xitoy rahbari.

Koreya yarim oroli davlat boshqaruvida siyosiy kommunikatsiya tizimini o'rganish uchun alohida qiziqish uyg'otadi. Koreya davlati hozirgi davrga kelib, ko'p asrlik tarixiy madaniyatga ega bo'lgan ijtimoiy jihatdan siyosiy tizimlari mutlaqo boshqa shakldagi ikki davlatdir.

Tadqiqotchi P.G. Nigmanova "Koreya Respublikasi va KXDRning siyosiy tizimlari qiyosiy tahlili" nomli maqolasida shunday manbalar keltiradi: "Siyosiy tizimning yana bir vazifasi jamiyatdagi qadriyatlarni hukmron sinflar va qatlamlar manfaatlariga muvofiq taqsimlashdir"[15], deyiladi. Bu ikki davlatning siyosiy tizimlarida o'xshashlik va juda ko'p farqlarni uchratish mumkinligiga ishora edi. Manbalarda keltirilishicha Kareya davlat boshqaruvi o'z tarixiga ega bo'lgan davlat. Zamonaviy davlatlarning siyosiy tizimidagi farqlar juda katta bo'lib, bu Koreya davlatining jamiyatni boshqarishida siyosiy kommunikatsiya davlat tuzilishi va siyosiy madaniyatga nisbatan ham farqlashi va turli siyosiy mezonlarga asoslangan holda mavjud.

Janubiy Koreya Respublikasi va KXDR (Shimoliy Koreya)ning siyosiy tizimlarida o'xshashlik va farqlar ko'p. Ikkala davlatning ham o'z tarixi bor, ammo zamonaviy davlatlar siyosiy tuzilmalarida juda ko'p farqlarga ega. Siyosatshunoslar siyosiy tizim atamasini tushunish bo'yicha bir fikrga kela olmagan uchun biz umumiy qoidalarni birlashtirib, yagona tushunchani ajratib ko'rsatamiz. Siyosiy tizim jamiyatni boshqaradigan, uning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlovchi o'zaro bog'langan elementlar yig'indisidir. Siyosiy tizimlar turli mezonlar, jumladan, boshqaruv shakli, davlat tuzilmasi va siyosiy madaniyatga ko'ra farqlanadi.

XXI asr boshlarida Koreya yarimoroli janubida mamlakatni

demokratlashtirishga qaratilgan yangi uzoq muddatli siyosiy tamoyillar yuzaga keladi. Siyosiy fanlari doktori M.V.Afoninning fikriga ko'ra, "Xalqaro munosabatlar tizimining o'zgarishi dastlab Koreya Respublikasining rasmiy kontseptsiyasi sifatida "Shimoliy siyosat"[16], keyin esa "Quyosh issiqligi" siyosati[17] deb atalgan, mualliflarning fikriga ko'ra, davlatlarni birlashtirish istiqbollari ochish uchun mo'ljallangan. Koreya Respublikasida ochiqlik, oshkorlik, plyuralizm sharoitida har tomonlama tahlil va tanqidlar asosida muxolif partiyalar koreys milliy birligi haqidagi eski tushunchalarga bo'ysungan.

Yangi modellar va unifikatsiya formulalarini faol izlash boshlanganligi munosabati bilan, Koreya Respublikasining turli siyosiy kuchlari Amerikaning Koreya yarim oroli janubidagi harbiy mavjudligiga boshqacha yondashuvni belgilab berdi, uning mohiyati AQShning cheklash missiyasidan bosqichma-bosqich voz kechishi va mintaqaviy xavfsizlikni shakllantirishga o'tish tizimi bo'lishi mumkin"[18], deyiladi manbada.

Zamonaviy rivojlanish tamoyillari Koreyani chetda qoldirmadi. Shimoliy Koreyaning xalqaro munosabatlarning yangi tuzilmasiga moslashish muammosini hal qilishga urinishlar mamlakat iqtisodiy modelini takomillashtirish zarurligini anglab yetgan holda iqtisodiy islohotlarning siyosiy tizimga ta'siridan qochish uchun Shimoliy Koreya rahbariyati bozor munosabatlariga asoslangan Shimoliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha Xitoy tajribasiga murojaat qila boshladi. Shu bilan birga, ichki moliyaviy resurslar va texnologiyalarning keskin yetishmasligini boshdan kechirgan va mamlakatning paydo bo'lgan diplomatik yakkalanishini yengib o'tgan.

Shimoliy Koreya G'arb bilan munosabatlarni tezda normallashtirish yo'lida o'z yo'nalishini faollashtirdi va shu bilan bir vaqtda o'zining pozitsiyalari umumiy siyosiy salohiyatini mustahkamlashga umid qilmoqda.

Tarixiy nuqtai nazardan shakllanayotgan yangi xalqaro tartibning elementlari birlashish muammosiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi muqarrar, ularsiz Koreyani tartibga solishning iloji yo'q. Shu o'rinda aytish mumkinki, Koreyaning ikkala davlat kelishuv muammosini hal qilish, yarim orolda sodir bo'layotgan ichki siyosiy jarayonlarga, asosan, siyosiy kuchlarning pozitsiyasiga bog'liq. Koreya Xalq Demokratik Respublikasi va Koreya Respublikasining siyosiy rivojlanishi masalalari, bu mamlakatlardagi siyosiy jarayonlarda partiyalarning roli mahalliy va xorijiy, jumladan, koreys tadqiqotchilarining

ko'plab tadqiqotlari mavzusi bo'ladi. Agar mahalliy nashrlarni oladigan bo'lsak, ularda maqola mualliflari 1980-yillarning oxirigacha, hodisalarni ob'ektiv ilmiy tahlil qilish vazifasini murakkablashtirilgan yondashuv tamoyillaridan kelib chiqqanligini ko'ramiz. Biroq bu asarlar "Shimoliy va Janubiy Koreyaning ijtimoiy-siyosiy muammolariga oid axborot resurslari sifatida muhim ahamiyatga ega"[19] edi. Masalan, to'qsoninchi yillarning ikkinchi yarmida nashr etilgan adabiyotlarda qiziqarli manbalar bor. Koreya yarim oroli muammolariga bag'ishlangan to'plamlarda chop etilgan maqolalarda asosan B.V.Sinisina[20], V.I. Shipayeva[21], A.N. Efanova[22] va boshqalar ikki Koreya davlati ichki siyosiy jarayonlarining ayrim jihatlarini tahlil qiladi. Koreya uchun eng muhim muammo bo'lgan, mamlakatni tinch yo'l bilan birlashtirishga bag'ishlangan asarlari, A.V.Torkunova, E.P. Ufimtseva[23], I.O. Gorelogo[24], V.D. Tixomirov[25] kabi tadqiqotchilar Koreyaning bo'linishidagi tashqi va ichki sabablarini o'rganadilar, KXDR va Koreya Respublikasining birlashish masalalari bo'yicha kontseptsiyalarini tahlil qiladilar. Tadqiqotlarda davlatlararo siyosiy kommunikatsiya jarayonlari keng taxlil qilinadi.

Koreyalik politolog olim Kang Von Sikning monografiyasi, Bugungi kunning eng dolzarb va katta ahamiyatga ega bo'lgan asarida "Janubiy Koreyadagi siyosiy vaziyat evolyutsiyasi muammolari XXI-asr boshlarida yuzaga kelgan voqealar, hamda Janubiy Koreya jamiyatining siyosiy voqeliklari haqida xabar berilgan"[26], tadqiqot mavzusi bo'yicha anchagina qimmatli manbalarni Rossiya tadqiqotchilari va koreyalik tadqiqotchi va olimlari tomonidan yozilgan "Koreya tarixi" ikki jildlik[27], "Zamonaviy Koreya", kabi asarlarda Koreyani birlashtirish masalalari alohida e'tiborga olinadi.

M.V.Afoninning fikriga ko'ra "Shimoliy Koreya olimlarining tadqiqot ishlari anchagina kamchilikni tashkil qiladi "mamlakatning yopiq tabiati tufayli tadqiqotchilar uchun imkoniyatlar mavjud emas"[28].

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ladiki, Shimoliy Koreyada tadqiqotlar juda kamchilikni tashkil qildi yoki yopiq holatda bo'lganligi tufayli noaniq qolmoqda. Shuningdek, tadqiqotchilar[29] Pak Gxe Xo[30] Chong Yong Xo[32], Kim Xan Gir[33] va boshqalar tomonidan yaratilgan manbalarda partiya yo'nalishidagi masalalarga e'tibor kuchaytirilganligi zarurligi belgilab qo'yilgan. Bugungi zamonaviy dunyoda siyosiy partiyalar fenomenini o'rganishga katta e'tibor zarurligini ta'kidlagan Afoninning fikriga ko'ra,

"Partiyalar fani – partiyashunoslik rivojlanishida davom etmoqda va uning rivojiga ikki Koreya davlati siyosiy elitasi vakillari muayyan hissa qo'shmoqda. Koreya yarim orolining shimolida ham, janubida ham sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar, partiya qurilishi, siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki o'ziga xos xususiyatlarga ega"[33], degan fikrni bildiradi.

Janubiy Koreya Respublikasi siyosiy jarayonning Shimoliy Koreyadan sezilarli darajada farq qiladigan boshqa tajribasiga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Biroq, ikkala Koreya ham Shimoliy va Janub iqtisodiyotidagi katta farqni e'tiborsiz qoldira olmagan. Bu davlatlardagi ayrim birlashishga bo'lgan barcha urinishlar "nemis" versiyasiga o'xshash yoki aynan takrorlaydi. Germaniya tajribasidan ma'lumki, aniq bir davr mobaynida, siyosiy vaziyatga qulay bo'lgandagina mumkin bo'ladi. Lekin bu ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Koreya davlat boshqaruvida Siyosiy tizim jamiyatni boshqaradigan, uning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlovchi o'zaro bog'langan elementlar yig'indisi sifatida qaraladi. Koreya davlat boshqaruvidagi jamiki tizimlarda siyosiy kommunikatsiya turli mezonlar, jumladan, boshqaruv shakli, davlat tuzilmasi va siyosiy madaniyatga ko'ra farqlanadi.

Tadqiqotchi Kim Ir Senning ta'kidlashicha, "Davlat boshqaruvidagi siyosiy kommunikatsiyaning umumlashgan shakldagi funktsiyalari quyidagilarda namoyon bo'ladi: "siyosiy tizim jamiyatning maqsad va vazifalarini belgilashi bilan birga jamiyatning hukmron qatlamlari manfaatlaridan kelib chiqqan holda uning hayotiy faoliyati dasturlarini ishlab chiqadi. U jamiyat resurslarini ana shu manfaatlarga muvofiq safarbar etadi, jamiyatning barcha elementlarini umumiy ijtimoiy-siyosiy maqsad va qadriyatlar atrofida birlashtiradi, jamiyatdagi qadriyatlarni, hukmron sinflar va qatlamlar manfaatlariga muvofiq namoyish etadi"[33.1].

Janubiy Koreya siyosiy tizimlari jahon hamjamiyatining e'tiborini va qiziqishini o'ziga tortadi. Ular G'arb siyosiy tizimlaridan farq qilishi va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, birinchi navbatda, tarixiy, madaniy va diniy me'yorlar bilan bog'liqligi sababli kuchayadi.

Koreya siyosiy madaniyatining shakllanishi ikki jihatga asoslanadi, birinchidan, jamiyatlarining Sharq va G'arbgacha bo'linishiga asoslansa, ikkinchidan an'anaviy va zamonaviy

jamiyat o'rtasidagi farqga asoslanadi, bu Koreyaning zamonaviy siyosiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida G'arb madaniyatidan o'zlashtirilgan yangi milliy an'analarni aks ettiruvchi sharq madaniyati bilan yonma-yon rivojlanadi. Bugungi kunda Koreya yarim orolida ikkita davlat va ikkita siyosiy tizim mavjudligiga qaramay, jamiyatda hukmronlik qiluvchi an'analarni umumiy tarixga asoslanganligi bilan katta ahamiyatga ega.

Shu o'rinda tadqiqotchi M. V. Afoninning "Koreya siyosiy partiyalari va Koreya birlashuvi muammolari" nomli dissertatsiyasida, zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari Shimoliy Koreya xalqaro munosabatlarning yangi tuzilmasiga moslashish muammosini hal qilishga urinishlar mamlakat iqtisodiy modelini takomillashtirish zarurligini taxlilga oladi. "Iqtisodiy islohotlarning siyosiy tizimga ta'siridan qochish uchun Shimoliy Koreya rahbariyati bozor munosabatlariga asoslangan Shimoliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha Xitoy tajribasiga murojaat qila boshladi"[17.1], deyiladi dissertatsiyada. Shu o'rinda ta'kidlanadiki, ichki moliyaviy resurslar va texnologiyalarning keskin yetishmasligini boshdan kechirgan va mamlakatda paydo bo'lgan diplomatik yakkalanishini yengib o'tgan Shimoliy Koreya G'arb bilan munosabatlarni tezda normallashtirish yo'lida o'z yo'nalishini faollashtirganligi hamda bir vaqtning o'zida o'zining umumiy siyosiy salohiyatini mustahkamlashga umid qilgan holda o'z pozitsiyasini davom ettirmoqda. Shu bilan birga muallif, "yarim orol atrofidagi xalqaro munosabatlarda, boshqa ijobiy tendentsiyalar Shimol va Janub o'rtasidagi yaqinlashish jarayoniga va keyinchalik Koreya xalqining birlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasligi mumkin"[34] degan xulosaga keladi. Janubiy Koreya siyosati axloqiylik bilan ajralib turadi. Siyosatchi Chon Du Xvan ta'kidlaganidek, "Siyosatchi yoki amaldor Konfutsiy sifatlariga ega bo'lishi va yuksak axloqiy shaxs bo'lishi kerak. Aks holda, u lavozimidan chetlashtiriladi va qayta saylovlar o'tkaziladi. Siyosiy tizimda kattalik tamoyiliga asoslangan iyerarxiya hukmronlik qiladi. Partiya yetakchilari keksa odamlarga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda ayollar siyosiy maydonda paydo bo'layotgan bo'lsa-da, siyosat odatda erkaklar ishi. Janubiy Koreya siyosiy madaniyati hanuzgacha tashqi modellarni va g'arbiylashuvni nusxalashga intiladi"[35], deyiladi.

KXDR davlatida asosan, jamiyatning barcha a'zolari yetakchiga nisbatan yuksak ma'naviy majburiyatlarga ega. Kollektiv qadriyatlar va asoslar Shimoliy Koreyada Janubiy

Koreyaga qaraganda ancha kuchliroq muhitga ega bo'lib, KXDRda, avvalgidek, rahbarning taxtini otadan o'g'ilga meros bo'lib keladi.

Tadqiqotchi M.V.Afonin manbalarida, "liderlik g'oyalari ommaga singdirish maqsadida Shimoliy Koreyada davlat rahbarini ulug'lash uchun yodgorlik ob'ektlari yaratilganligi, koreys an'anaviy madaniyatiga xos bo'lgan, qadimda Koreya davlatining buyuk asoschisiga sig'inishgan, hozirgi rahbar, KXDRda aholini nazorat qilishning yangi va eski shakllari birgalikda mavjud. Yaqin tarixdagi partiya yacheykalari va xalq guruhlari, ya'ni mintaqada bir nechta oilalarning hamkorlik munosabatlari hamda xalqning guruh sifatidagi, qo'shni uylarning aholisi birgalikda soliq to'lash uchun birlashganligini va o'zaro mas'uliyat bilan bog'langan besh hovli tizimi bilan birlashmalar kelib chiqqanligini ko'rish mumkin"[36] deyiladi. Albatta bu yerda asosan siyosiy kommunikatsiya usullarini ko'ramiz.

Koreya Respublikasi davlat boshqaruvida siyosiy kommunikatsiyaning rivojlanishi, bu mamlakatlardagi siyosiy tizim jarayonlarida partiyaning roli, mahalliy – xorijiy va koreys mualliflarining tadqiqotlari mavzusiga aylangan. Zamonaviy mahalliy nashrlarni kuzatadigan bo'lsak, ularning mualliflari 80-yillarning oxirigacha, hodisalarni ob'ektiv ilmiy tahlil qilish vazifasini murakkablashtirgan sinf yondashuvning asosiy tamoyillaridan kelib chiqqanligi, "asarlar Koreyaning Shimoliy va Janubiy ijtimoiy-siyosiy muammolariga oid axborot resurslari sifatida muhim ahamiyatga ega"[36.1], ekanligini ko'rish mumkin. Siyosiy o'zgarishlar tajribasi va paydo bo'layotgan ko'ppartiyaviylik tizimi mahalliy olimlarni o'ziga jalb qila boshlagan.

Rossiyalik olim S.S.Suslinaning fikriga ko'ra 1997 yilda "Koreya Respublikasi rivojlanishning postindustrial bosqichiga o'tishni boshladi", degan xulosaga keladi. Uning fikricha, "iqtisodiy modernizatsiya muvaffaqiyati jamiyatning muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishini va davlatning avtoritarizmdan demokratiyaga o'tishini oldindan belgilab berdi[37], degan edi.

Tadqiqotchi Pak Chju Yen o'zining "Problema ob'edineniya Koreyi v kontekste globalnogo miropoliticheskogo protsessa" nomli dissertatsiyasida "Xalqaro munosabatlarning globallashtirish va baynalmilallashtirishga aylangan zamonaviy sharoitda jahon taraqqiyotining asosiy tamoyillari, Koreyani birlashtirish muammosi jahon siyosatidagi markaziy o'rinlardan biriga aylandi. Shimoliy Koreya yadroviy muammosini hal qilish kontekstida ommaviy qirg'in qurollarini

tarqatmaslik masalasini o'rganish nihoyatda muhim"[38], degan masalani o'rtaga tashlaydi muallif, haqiqatdan ham agar davlatlar o'rtasidagi dolzarb global xavfning asosiy rivojlanishini to'xtatish imkoniyatlarini izlayotganligi juda katta ahamiyatga ega bo'lib tadqiqotchi bunda asosan Germaniyaning tajribasini misol keltiradi: "Koreya birlashuvi muammosining xususiyatlarini aniqlashni, Germaniyaning birlashtirish jarayoni bilan taqqoslaydi".

Tadqiqotchi, Marina Kuklaning "Ekonomika Yujnoy Korei: na te je Grabli"[39] nomli maqolasida shunday yozadi, "Koreya gambiti: Seulning yangi dunyo tartibida joy izlashi. An'anaga ko'ra, Janubiy Koreya jamoatchiligi iqtisodiy muvaffaqiyatsizliklarni prezident ma'muriyati siyosati bilan bog'laydi. Koreya iqtisodiyotida yirik moliyaviy muammolar yuzaga keldi - neft narxining yuqoriligi, pulning qadrsizlanishi, inflyatsiya va amaldagi ma'muriyatning iqtisodiy strategiyasini tanqid qilish kuchaya boshladi. Yun Sog'ol, janubiy koreyalik konservatorlarga xos bo'lganidek, o'zining asosiy sa'y-harakatlarini biznesni qo'llab-quvvatlash va bozor mexanizmlarini rag'batlantirishga qaratib, aynan shu narsa korxonalarni muvaffaqiyatga, mamlakatni esa iqtisodiy o'sishning yangi bosqichiga olib boradi, deb hisoblaydi. Yun ma'muriyatining asosiy maqsadi sanoatni qo'llab-quvvatlash va mamlakatdan kapital qochib ketishini to'xtatish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun Koreya biznesi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Prezident Yun davrida Koreyaning iqtisodiy siyosatida "to'g'ri" burilishni ko'rsatuvchi iqtisodiy siyosatning boshqa ustuvor yo'nalishlari orasida atom energetikasini qo'llab-quvvatlash, yuqori daromadli fuqarolar uchun soliqlarni kamaytirish va ijtimoiy kafolatlarni kengaytirishdan farqli ravishda yirik korxonalarni qo'llab-quvvatlash, ishchilar huquqlarini himoya qilish va ishchilar huquqlarini himoya qilish muammolariga ko'proq e'tibor qaratgan" ligini ko'ramiz. Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In Davlat Dumasida so'zlagan nutqida: "Ushbu ulkan rejadani ko'zlangan maqsad G'arb va Sharq sivilizatsiyasining barcha eng yaxshilarini bir ulkan qozonda birlashtirish, insoniyatga dunyoga yangicha qarashni taqdim etishdan iborat"[39.1], degan edi.gan

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Siyosiy kommunikatsiya turli ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida siyosat va boshqaruvning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va yangilanishlarning tub mohiyatini anglab yetish, ularni yanada chuqurroq o'rganish siyosiy kommunikatsiyani joriy etishni taqozo etmoqda;

kommunikatsiyaning birinchi ta'riflaridan biri amerikalik sotsiolog Charlz Kuli tomonidan berilgan. Uning fikricha, inson munosabatlarining rivojlanishi mumkin bo'lgan mexanizm – ongning barcha timsollari, axborotni muayyan vaqt va makonda uzatish jarayonidir; siyosiy kommunikatsiya jamiyatda mavjud bo'lgan muayyan siyosiy tizimning kelib chiqishi, tabiati va xususiyatlarini o'z ichiga qamrab oladi, siyosiy rejim, ommaning siyosiy ishtiroki, siyosiy jarayonlarning dinamikasi, yo'nalishi, odamlarning siyosiy xulq-atvori bilan bog'liq bo'lib, ularsiz samarali siyosatni amalga oshirish mumkin emasligi barchaga ma'lum.

REFERENCES

- [1] – V асрда хитой мутафаккири Конфуций (Кун-цзи) томонидан ишлаб чиқилган фалсафий-ахлоқий тизим.
- [2] – Таоизм - бу Тао ёки "нарсалар йўли" таълимоти, дин ва фалсафа элементларини ўз ичига олган Хитойнинг аънавий таълимоти.
- [3] – Буддизм, шунингдек, Дхарма Виная - "таълимотлар ва интизомлар" номи билан ҳам танилган ва Будда Дхарма Гаутама Буддага тегишли бўлган бир қатор асл таълимотларга асосланган ҳинд дини ёки фалсафий аънадир.
- [4] – Ши Цзинь хитой адабиётининг энг қадимий ёдгорликларидан бири бўлиб, қадимги Хитойнинг турли минтақалари тили, мафқураси, одоб-ахлоқи ва аънавалари ҳақидаги ноёб маълумот манбаи бўлиб, аҳамияти ва услуби жиҳатидан қадимги Эрон "Авесто"сига қиёсланади. Конфуций матнларининг Қаноник тўпламига киритилган У-цзин.
- [5] – История Кореи (с древнейших времён до наших дней) в 2 т. - М.: Наука. 1974, 2021. т 2. -Т.: С.480.
- [6] – Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник: в 2 ч. -Ч.1/ под ред. чл- корр РАН, д-ра экон, наук, проф. Р.И.Хасбулатова. -М.: Гардарики. - 2006. -С.38.
- [7] – Hao Y.A.Summary of the "First National Forum on Global Studies and Global Governance"//World Economics. 2013. No.7.P. 63-64 (In Chinese).

- [8] – Lihua Zh.(ed.)Introduction to International Organization. Beijing:Science Press 2015. (In Chinese).
- [9] Цыганков П.А. Политическая динамика современного мира: теория и практика. – М.: Изд-во Московской университета, 2014.
- [10] Цыганков П.А. Введение. “Гибридные войны”: понятие, интерпретация и реальность. В книге “Гибридные войны в хаотизирующемся мире XXI века” / Под ред.проф.П.А.Цыганкова. – М.: Изд-во Московского университета. 2025.
- [11] Grachkov Y. Chinese Partnership Atrategy: Practice and Its Conceptualization (1993 -2018) // World Economics and International Relations. 2019.Vol.63. No. 3.P. 83-93.
- [12] Grachkov Y. Chinese School of International Relations:How Theory Creates Diplomatic Strategy and Vice Versa // Russia in Global Aff airs. 2029.Vol.17.No.2. P. 154 – 173.
- [12] – Цыганков П.А.,Грачиков У.Н. Проблема мирового политического порядка в китайской и российской политической науке: общее и особенное // Политическая наука, 2014.№4.С.22-39; Grachikov Y/ Formation of the Chinese School of International Relations^ Analytical Approaches and Research Methods// Vestnik RUDN. International Relations. 2019. No.19(2).P.187-200.
- [14] Guojiguanxi chubanshe 2013. (Practical Handbook of International Relations / Ed. by Y.Rihan and Y.Yufei. Tianjin: Tianjin People’s Publishing House, 2013) (In Chinese).
- [15] Агентство Синьхуа 08:35.28/07/2022 Си Цзиньпин подчеркнул необходимость отстаивать социализм с китайской спецификой для построения модернизированного социалистического государства. <http://russian.people.com.cn/n3/2022/0728/c31521-10128282.html>
- [16] Нигманова П.Г. “Политические системы Республики Корея и КНДР сравнительный анализ”. Кориеведении в России: направление и развитие. 2024. Т5.№2. с 154-162.
- [17] См. подробнее. Ро Дэ У. Политический профиль. - Сеул: Корейская служба зарубежной информации, 1991. - 13 е.; Bedeski R. State Reform and Democracy in South Korea // Journal of East Asian Affiars. - 1992. - № 6. - P. 140-168; Bedeski R. The Transformation of South Korea: Reform and Reconstruction in the Sixth Republic under Roh Tae Woo, 1987-1992. - Padstow: TJ Pr., 1994. - 197 p.; Han Sung-Joo. South Korea in 1987: The Politics of Democratization // Asian Survey. - 1988. - Vol. 1. - № 28. - P. 52-61; Han Sung-Joo. South Korea in 1988: A Revolution in the Making // Asian Survey. - 1989. - Vol. 1. - № 29. - P. 29-38; Пак Ки Док. Но Тхэ У чонбуэ чхече конгохвава кэхекджуиэ тхвечо: кэхек иронэ чоннибыль вихан сидо (Укрепление режима правления Ро Дэ У и снижение реформаторских настроений в его правительстве: попытка осмыслить проблему теоретического обеспечения реформ) // Хангук чончихак хвебо. - Т. 28. - № 1. - Сеул, 1994. - С. 123-161.
- [18] – Солнечная политика Республики Корея: Выступление президента Ким Тэ Чжуна, переданное по каналам спутниковой связи, на Всемирной конференции CNN, прошедшей в штаб-квартире компании CNN в г. Атланта, штат Джорджия, США. 5 мая 1999 г. - Сеул, 1999. - 12 е.; Ким Тэ Чжун сибодэ тэтхоньнен чвиимса. Чонмун (Полный текст инаугурационной речи Ким Тэ Чжуна, избранного на 15 президентский срок) // Чунан Ильбо. - 1998. - 26 февраля; На Чон Иль. Ким Тэ Чжун тэтхонненэ хэнчжон апхесоэ чончихок кваче (политические задачи, стоящие перед администрацией президента Ким Тэ Чжуна) // Синтона Вольган. - 1998. -Январь. - С. 3-6; Ra Jong-yil. Political Tasks Facing Kim Dae-jung Administration // Korea Focus on Current Topics. -January-February 1998. - Vol. 6. - № 1.-P. 1-7; Park Jong-joo. President Kim's First Year in Office: Survey Results // Korea Focus on Current Topics. - March-April 1999. - Vol. 7. - № 2. - P. 32-37;
- [19] Афонин М.В. Корейские политические партии и проблемк объединения Кореи. Диссертации. По ВАК РФ 23.00.02.
- [20] История Кореи (с древнейших времен до наших дней). В 2-х тт. - Т. 2. - М.: Восточная литература, 1974. - 480 е.; Мазуров В.М. Создание антинародного режима в Южной Кореи (1945 - 1950 гг.). -М.: Изд-во восточной литературы, 1963. - 195 с. и др.
- [21] Сеницина Б.В. Стратегия социально-экономической модернизации Республики Корея(60-80-е гг.) // Республика Корея: опыт модернизации. -М.: Восточная литература, 2020. - с. 74.
- [22] Шипаев В.И. Условия и предпосылки модернизации Южной Кореи // Республика Корея: опыт модернизации. — М.: Восточная литература, 1996. - С. 48-73.

- [23] Ефанов А.Н. Взаимоотношения режима и оппозиции в переходный период (80-е гг.) // Республика Корея: становление современного общества. -М.: ИМЭМО РАН, 1996. - С. 63-76.
- [24] Торкунов А.В., Уфимцев Е.П. Корейская проблема: новый взгляд. - М.: Наука, 1995. - 246 е.; Корея: расчленение, война, объединение. - М.: Восточная литература, 1995. - 146 с.
- [25] Горелый И.О. Корея. Концепции объединения. -М.: Восточная литература, 1997. - 127 с.
- [26] Тихомиров В.Д. Корейская проблема и международные факторы (1945 - начало 80-х годов). - М.: Восточная литература, 1998. -280 с.
- [27] Кан Вон Сик. Россия и Корея на пороге XX века, - М.: Корос, 2020, - 330 с.
- [28] Афонин М.В. Корейские политические партии и проблемк объединения Кореи. Диссертации. По ВАК РФ 23.00.02.
- [29] Ким Мён Хо. Изменения политической линии в системе Ким Чен Ира и перспективы отношений между Южной и Северной корей. 1999.
- [30] Пак Гхэ Хо. История внешней политики КНДР. Пхеньян. 1985-1987. – 345с.
- [31] Ким Хан Гир. Современная история Кореи. 1999. – 363с.
- [32] Пак Хён Чер. Основные направления деятельности по объединению нации и страны. 1990. -138 с
- [33] Афонин М.В. Корейские политические партии и проблемы объединения Кореи. Диссертации. По ВАК РФ 23.00.02.
- [34] Ким Ир Сен. Ответы на вопросы иностранных журналистов.Пхеньян: Изд-во литературы на тностранных языках, 1974. - 403 с.
- [35] Chun Doo Hwan. Inauguration Address to National Assembly// The National Assembly Report. February 1981. – P.17-27.
- [36] Хон В.С. История Кореи (с древнейших времен до наших дней). В 2-х. т. - Т. 2. - М.: Восточная литература, 1974. - 480 с.; Мазуров В.М. Создание антинародного режима в Южной Кореи (1945 - 1950 гг.). -М.: Изд-во восточной литературы, 1963. - 195 с. и др.
- [37] Суслина С.С. Республика Корея на постиндустриальной стадии развития (конец 80-х - начало 90-х годов). -М.: Восточная литература, 1997. - 224 с. Пак Часу Ен Проблема объединения Кореи в контексте глобального мирополитического процесса. С- Петербург. Дисс-я. 2009.
- [38] Кукла М.П. Финансовый сектор в экономике Республики Корея: от индустриализации до цифровой трансформации. 2023. -С. 5-17. <https://koreanology.ru/static/articles/.2023> .
- [39] Мун Чже Ин Корея Республикаси Президентининг Россия Федерациясига таширифи чоғидаги маърузасидан. <http://duma.gov.ru/news/>